O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori

M.E. Po’latov

2024 yil «__» avgust

Ro’yxatga olindi: FD-02-27

2024 yil «29» avgust

TADQIQOT USULLARI VA KO’NIKMALARI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi : 400 000 – Bisnes, boshqaruv va huquq

Ta’lim sohasi: 410 000 – Bisnes va boshqaruv

Ta’lim yo‘nalishi: 60410100 –Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar bo’yicha)

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
	2024-2025	5	6
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlar
Tanlov	O'zbek/rus		4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	TADQIQOT USULLARI VA KO'NIKMALARI	90	90	180

I.FANNING MAZMUNI

Fan bizni qurshab turgan dunyo to'g'risida ob'ektiv aniq bilimlarni ishlab chiqish bo'yicha samarali inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanadi. Bu soha mazkur ijodni ta'minlovchi, muntazam rivojlanib boruvchi bilimlar tizimini, insonlar va muassasalarning ilmiy ijoddarini o'z ichiga oladi. Fan va texnikaning bir-biri bog'liq rivojlanish jarayoni insonga moddiy va ma'naviy boyliklarni olish uchun atrof muhitga ta'sir etishga imkon beradi. Zero bu ta'sir hozirgi vaqtda ham, istiqbolda ham atrof muhitga zarar keltirmasligi lozim. Ilmiy ijod natijalarini ishlab chiqarishga tadbiq etish mehnat samaradorligining oshishida, mahsulot tannarxining arzonlashishida, uning sifati va raqobatbardoshligi o'sishida, ekspluatatsiya ko'rsatkichlarining yaxshilanishida va h.k. larda aks etadi. Ilmiy muvaffaqiyatlar bevosita oliy maktab rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Fan talabalarning bilimlariga, ularning ijodi rivojlanishiga, tegishli faoliyat sohasida oqilona yechimlarni topa bilish iqtidoriga yangi o'sib borayotgan talablarni qo'yadi.

II.O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

"Tadqiqot usullari va ko'nikmalari" fanini o'qitishdan maqsad- talabalarning mamlakatimizda inson resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, rasmiylashtirish, natijalarni amaliyotga tadbiq etish borasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Tadqiqot usullari va ko'nikmalari fanining bosh muhim vazifasi, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish xususiyatlari; tadqiqot olib borishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij taribasi; tadqiqot tushunchasi, tashkil etish bosqichlari va amalga oshirish metodlari; tadqiqot uchun axborotlarni to'plash va ularni saralash xususiyatlari; tadqiqotni rejalashtirish; ilmiy ishlarni yozish va shakllantirish; ommaviy so'rovnomalarni o'tkazish; anketalashtirish; marketing tadqiqotlarini olib borish xususiyatlari; tadqiqotlarning matematik usullari; tadqiqot jarayonidan internet tarmog'idan foydalanish; tadqiqot ishlarini baholash tamoyillari; tadqiqot olib borishdagi muammolarni bartaraf qilish yo'llari o'rganishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

-tadqiqot olib borishni, rejalashtirish va rasmiylashtirish qoidalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi kerak***;
-O'zbekiston Respublikasi va chet el mamlakatlarida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarga berilayotgan e'tibor ko'lami va amalga oshirilayotgan ishlar haqida ***tasavvurga ega bo'lishi*** **kerak;**
-talabalarda mamlakatimizda inson resurslarini boshqarish sohasida mavjud dolzarb muammolarini aniqlash, tadqiqot mavzularini shakllantirish, tadqiqot rejasini tuzish va amalga oshirish, tadqiqot natijalarini amaliyotga **tadbiq etish** ***ko'nikmalariga ega bo'ladi.***

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu. O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish xususiyatlari

Ilm-fanni va innovatsiyalarni davlat darajasida tashkil etish va boshqarish. Ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar. Yoshlarning innovatsion va startap g'oyalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. O'zbekistonda intellektual mulk himoyasiga berilayotgan e'tibor.

2-mavzu. Tadqiqot olib borishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij taribasi

AQShda tadqiqot va ishlanmalar sohasida boshqaruv tizimi. Buyuk Britaniyada tadqiqot va ishlanmalar sohasida boshqaruv tizimi. Fransiyada tadqiqot va ishlanmalar sohasida boshqaruv tizimi. Yaponiyada tadqiqot va ishlanmalar sohasida boshqaruv tizimi.

3-mavzu. Tadqiqot tushunchasi, tashkil etish bosqichlari va amalga oshirish metodlari

Tadqiqot tushunchasi va tanifi. Ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish bosqichlari: mavzuni tanlash, rejalashtirish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va takliflarni ishlab chiqish. Tadqiqot metodlari: analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, retrospektiv yondashish, qiyosiy tahlil, empirik va dala materiallarini yig'ish, so'rovnomalar o'tkazish, kuzatish, eksperiment, kontent-analiz va statistik ma'lumotlardan foydalanish, intervyu va ekspress-intervyu, sotsiometriya, modellashtirish, monostilistika va polistilistika.

4-mavzu. Tadqiqot uchun axborotlarni to'plash va ularni saralash xususiyatlari

Axborot to'plash usullari: kuzatish, tajriba va so'rovnoma. Axborot to'plash manbalari: ilmiy nashrlar, o'quv adabiyotlari, publitsistik nashrlar, OAV, internet

saytlari, ijtimoiy tarmoqlar. Adabiyotlarni o'rganish metodikasi. Bibliografik havolalarni rasmiylashtirish qoidalari.

5-mavzu. Tadqiqotni rejalashtirish

Muammoni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Muammoli vaziyatlarni va guruhlarni saralash va tadqiq qilish. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash: kuzatuv, etnografik usul, tadqiqot. Tahlil qilish bosqichlari.

6-mavzu. Ilmiy ishlarni yozish va shakllantirish

O'quv-ilmiy ishlarning tarkibiy tuzilishi va rasmiylashtirish qoidalari. Rasmlarni rasmiylashtirish qoidalari. Jadval va formulalarni rasmiylashtirish qoidalari. Referat va mustaqil ishlarni rasmiylashtirish va himoya qilish qoidalari. Kurs ishlarini tayyorlash va himoya qilish qoidalari.

7-mavzu. Ommaviy so'rovnomalarni o'tkazish

Ommaviy so'rovnoma tushunchasi: suhbat, intervyu, anketalashtirish. Ommaviy so'rovnoma o'tkazish uchun sabablar va manbalar. Ommaviy so'rovnoma o'tkazish rejasini tuzishning o'ziga xos xususiyatlari. Ommaviy so'rovnoma natijalarini baholash.

8- mavzu. Anketalashtirish

Anketa tushunchasi va turlari. Anketani shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Fokus–guruhlar, ularni rejalashtirish va faoliyatini yuritish. Anketalashtirish natijalarini rasmiylashtirish

9-mavzu. Marketing tadqiqotlarini olib borish xususiyatlari

Marketing tadqiqotlarining turlari va uning tasnifi. Marketing tadqiqotlarida tanlash va statistik kuzatish usullari va ularning mohiyati. Marketing tadqiqotlari konsepsiyasini ishlab chiqish. Marketing tadqiqotlarining bosqichlari va ularni amalga oshirish tadbirlari. "STEP/PEST" makromuhit tahlili uslubiyoti. "ETOM" makromuhit xatarlari va imkoniyatlari tahlili uslubiyoti. "QUEST" makromuhit omili tahlili metodikasi.

10-mavzu. Tadqiqotlarning matematik usullari

Jarayonlarning tadqiqoti: asosiy masala va bosqichlar. Chiziqli va nochiziqli dasturlash. O'yinlar nazariyasi: tavakkalchilik sharoitida yechim qabul qilish, jadvalli o'yinlar, kooperativ o'yinlar. Optimal boshqaruv nazariyasi.

11-mavzu. Tadqiqot jarayonidan internet tarmog'idan foydalanish

Internetda tadqiqot turlari va ularning tasniflanishi. Internet va elektron pochta xizmatlari.

12-mavzu. Tadqiqot ishlarini baholash tamoyillari

Tanlangan mavzuning dolzarbligini va yangiligini baholash. Mavzu va tadqiqot mazmunining bir-biriga, natijalarning maqsad va vazifalarga mosligini baholash. O'rganilganlik darajasini, foydalanilgan manbalarning ishonchliligini, dolzarbligini va miqdorini baholash.

13-mavzu. Tadqiqot olib borishdagi muammolarni bartaraf qilish yo'llari

Mavzuni tanlashdagi muammolari. Axborot manbalaridan foydalanishdagi muammolar. Tadqiqot jarayonlarining olib borlishiga va natijalar sifatiga psixologik omillarning ta'siri.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1.O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish xususiyatlari
2.Tadqiqot olib borishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorij taribasi
3.Tadqiqot tushunchasi, tashkil etish bosqichlari va amalga oshirish metodlari
4.Tadqiqot uchun axborotlarni to'plash va ularni saralash xususiyatlari
5.Tadqiqotni rejalashtirish
6.Ilmiy ishlarni yozish va shakllantirish
7.Ommaviy so'rovnomalarni o'tkazish
8.Anketalashtirish
9.Marketing tadqiqotlarini olib borish xususiyatlari
10.Tadqiqotlarning matematik usullari
11.Tadqiqot jarayonidan internet tarmog'idan foydalanish
12.Tadqiqot ishlarini baholash tamoyillari
13.Tadqiqot olib borishdagi muammolarni bartaraf qilish yo'llari

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.O'zbekistonda o'tkaziladigan innovatsion loyihalar tanlovi.
2.O'zbekistonda o'tkaziladigan amaliy loyihalar tanlovi.
3.O'zbekistonda o'tkaziladigan fundamental loyihalar tanlovi.
4.O'zbekistonda o'tkaziladigan startap loyihalar tanlovi.
5.Tadqiqot olib borishni moliyalashtirish manbalari.
6.O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va uning tarkibidagi institutlar

7.O'zbekiston Respublikasida mavjud axborot-resurs markazlari
8.Tadqiqot uchun axborotlarni to'plashda davriy nashrlardan foydalanish
9.Tadqiqot uchun axborotlarni to'plashda internet resurslaridan foydalanish
10.Tadqiqotni rejalashtirish bosqichlari
11.Ilmiy ishlarni yozish va shakllantirish ko'nikmalari
12.Ommaviy so'rovnomalarni o'tkazishda hududiylik omilining ta'siri
13.Ommaviy so'rovnomalarni o'tkazishda ijtimoiy omilning ta'siri
14.Ommaviy so'rovnomalarni o'tkazishda vaqt va muddatning ta'siri
15.Marketing tadqiqotlarini olib borish xususiyatlari
16.Tadqiqotlarning matematik usullari
17.Tadqiqot ishlarini baholash tamoyillari
18.Tadqiqot olib borishdagi muammolarni bartaraf qilish yo'llari.

V. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1.Ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida

2.Foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

3.Makro va mikroiqtisodiy jarayonlarni bilishi, biznesni tashkil qilish, yuritish va korporativ boshqarish bo'yicha bilimga ega bo'lishi;

4.tashkilotlarda buxgalteriya hisobining o'rni, nazorat, xavfsizlik, audit tushunchalarini bilishi;

5.Xarajatlar hisobi, xarajatlar klassifikatsiyasi, byudjetlashtirish, kalkulyatsiya qilish usullarini bilish;

6.Buxgalteriya hisobini yuritish va unga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, moliyaviy hisobotni shakllantirishda axborotlarni yig'ish usullarini qo'llay olishi, moliyaviy va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni bilishi;

7.Respublikamiz soliq tizimi, soliq turlari va ularning mohiyati, hisoblanishi, to'lanishi va hisobini yuritishni bilishi;

8.Buxgalteriya hisobi obyektlari bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida hisob yuritish va moliyaviy hisobotni shakllantirishni bilishi;

9.Davlat sektorida ichki audit xizmatini tashkil etish, moliyaviy nazorat o'tkazishning printsiplari va usullari, auditorlik tekshiruvi rejasi va dasturlarini tuzish, ichki audit hisobotini tayyorlash va taqdim etishni bilishi;

10.Moliya sektorlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning normativ-huquqiy asoslarini, xo'jalik operasiyalarini ro'yxatga olish va

hisobotlarda aks ettirishni, moliya sektorlarida moliyaviy hsobotlarni tuzishni bilishi;
11.Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishni, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishni bilishi;
12.Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning normativ-huquqiy asoslarini, moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi, bank faoiliyati asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishni bilishi;
13.Audit va auditorlik tekshiruvi, uning turlari, o'tkazish tartibi hamda natijalarini rasmiylashtirish tartibini bilishi;
14.Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlashi.

VI.ASOSIY ADABIYOTLAR

1.Алемасов В., Мамадалиев Ш.О. «Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт» курсидан катта илмий ходимлар-изланувчилар ва мустақил изланувчилар учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 102 б.
2.Н.А.Шермуҳаммедова Илмий тадқиқот метедологияси.Дарслик.-Т.:"Fan va texnologiya".2014.502 b.
3. Jarayonlar tadqiqoti: Darslik / O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T. "Barkamol Fayz media" nashriyoti, 2017. – 572 b.
4.Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. 0 'quv-metodik qoilanma. - T.: "Sano-standart", 2 0 1 5 .- 1 2 0 b
5. Методы и средства научных исследований: учеб. пособие / Ю. Н. Колмогоров [и др.]. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017. — 152 с.
6 Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования. – М.: Либроком. – 280 с.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g 'risida"gi 0 'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
4.Илмий тадқиқот усуллари. https://staff.tiiame.uz/storage/ users/398/presentations/ 9EqxAVSxXIEFILYOAuz45lvZ6keFjKyDtFG1BqFW.pdf

Axborot manbaalari

1.www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
2.www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

3.www.ziyonet.uz (Axborot ta'lim tarmog'i)
4.www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ima'lumotlari milliy bazasi)
5.www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi)
6.www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi)
7.www.accountingtools.som (Buxgalterlar uchun qo'llanmalar sayti)
8.www.ifrs.org (Moliyaviy hisobotning xalqaro s tandartlari fondi sayti)
9.www.norma.uz

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-02-24)
Fan/modul uchun ma'sullar: **Rafeyev D.R.** – SamISI, «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi dotsenti, i.f.n. **Pashaxodjayeva D.D.** - SamISI, «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi dotsenti,PhD
Taqrizchilar: **Abdullayev R.A.** - O'zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi Samarqand filiali Kengashining raisi **Axmedjanov A.** - SamISI, «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi dotsenti, i.f.n.